

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4  
**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 7 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduxamidov Islombek</i> O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI .....	10-18
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i> ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ .....	19-24
<i>Индиаминова Шоира Амриддиновна</i> РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ .....	25-29
<i>Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH .....	30-35
<i>Ismoilova Parvina</i> TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) .....	36-41
<i>Jomurodov Lazizbek Islomovich</i> O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI .....	42-46

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна</i> ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ .....	47-54
<i>Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna</i> VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH .....	55-61
<i>Mamadaliyev Ulug'bek</i> JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI .....	62-69
<i>Jalilov Arslon Xoshimovich</i> TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH .....	70-75
<i>Kamchibekov Farxod Olimjonovich</i> O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI .....	76-82

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Djurayev Lukmon Narzullaevich</i> ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI .....	83-87
---	-------

*Norkulov Ubaydulla Umarovich*

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI ..... 88-92

*Пулатов Шердор Нематёнович*

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ ..... 93-105

*Yusupov Murodali Sunnatovich*

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI ..... 106-110

*Suleymanov Sarvar Sunatullayevich*

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI ..... 111-116

*Shernazarov Ravshan Avazovich*

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI ..... 117-122

*Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich*

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI ..... 123-126

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Matkarimova Salomat Ko'ziyevna*

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK ..... 127-133

*Tairova Maxfuza Abdusattorovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI ..... 134-139

*Rahimova Maftuna*

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA ..... 140-143

*Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna*

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR ..... 144-147

*Xursanov Nurislom Iskandarovich*

O'ZBEK FRAZEOLIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI ..... 148-154

*Umarov Umidjon Akram o'g'li*

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI ..... 155-159

*Облокулова Шахло Асрор қизи*

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ ..... 160-164

*Nazarova Lola Maqsadilla qizi*

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ..... 165-170

*Umarxonova Dilafruz Murotjonovna*

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI ..... 171-175

*Yunusova Ganjina Rustamovna*

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

*Мусаев Файзулло Оманович*

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ ..... 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	



RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI .....	283-289
---	---------

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ .....	290-297
--	---------

*Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI .....	298-306
--	---------

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ .....	307-317
--	---------

*Маматкулов Камолiddин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	318-323
---	---------

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	324-329
---	---------

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI .....	330-341
--	---------

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	342-346
---	---------

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI .....	347-357
---	---------

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR .....	358-363
--	---------

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA .....	364-369
--	---------

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI .....	370-375
---	---------

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	376-381
--	---------

**07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**

**Received:** 30 June 2024

**Accepted:** 5 July 2024

**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

**HISTORY OF LABOR MIGRATION OF THE PEOPLE OF UZBEKISTAN IN THE RUSSIAN FEDERATION**

**Abdukhamidov Islombek**

PhD student of the institute of History

[klaviho@mail.ru](mailto:klaviho@mail.ru)

**Abstract.** The article analyzes the history of labor migration of uzbeks, particularly residents of the Fergana valley regions in the Russian Federation, based on various literature, periodical press publications, as well as materials from the departmental archive of the Agency for external labor migration under the Ministry of employment and poverty reduction of the Republic of Uzbekistan. Also, it was highlighted that the negative consequences of migration appeared as a result of the lack of timely management of organizational and legal issues of uzbek labor migrants in the Russian Federation.

**Key words:** migration, labor migrant, informal labor migration, citizen, human trafficking.

**O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI**

**Abduxamidov Islombek**

Tarix instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbekistonliklar xususan, Farg'ona vodiysi viloyatlari aholisining Rossiya Federatsiyasidagi mehnat muhojirligi tarixi turli adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari shuningdek, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining idoraviy arxivi materiallari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasidagi o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining tashkiliy-huquqiy masalalarini o'z vaqtida yo'lga qo'yilmasligi natijasida migratsiyaning salbiy oqibatlarini paydo bo'lganligi yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** migratsiya, mehnat muhojiri, norasmiy mehnat muhojirligi, fuqaro, odam savdosi.


DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N01>

**Kirish.** XXI asr boshlaridan Rossiya Federatsiyasi (keyingi o'rinlarda – RF)dagi iqtisodiy o'sish va mehnat resurslari bilan bog'liq mavjud vaziyat mamlakatning ichki mehnat bozorida mehnat muhojirlariga bo'lgan talabning ortib borishiga sabab bo'ldi. Qolaversa, o'zaro tarixiy yaqinlik, vizasiz rejimning mavjudligi o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining yo'nalishini RF tomon harakatlanishida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, turli yillarda o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining 70-80 foizi RFda mehnat qilgan bo'lib, ularning soni 3,5 million atrofida ekanligi qayd etilgan [26; 24]. E'tiborli jihati mehnat muhojirlari orasida keyingi o'n yillikda hotin-qizlarning faollashuvi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yillarning

boshlarida o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining 11-18 foizini xotin-qizlar tashkil etgan bo'lsa [31; 19], bu ko'rsatkich 2021-yilga kelib 24 foizga yetgan [19].

**Asosiy qism.** O'zbekiston va RF o'rtasida mehnat muhojirligi masalalarida ikki tomonlama hamkorlik aloqalari nisbatan kech yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu masala, asosan, mintaqaviy darajada muhokama qilingan. Mintaqaviy hamkorlik 1994-yil 15-apreldagi "Mehnat migratsiyasi va mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi [5] shuningdek, 1998-yil 6-martdagi "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi davlatlarining noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risida"gi [25] bitimlar asosida tartibga solingan. Ammo, mintaqaviy hujjatlar ikki davlat o'rtasidagi sohadagi hamkorlik masalalarini tartibga solishda samarali bo'lgan deb bo'lmaydi [22; 66]. Chunki, yuqoridagi bitimlar o'zining tartibga solish ta'siriga ko'ra faqat qabul qiluvchi mamlakat manfaatlarini ifodalab, mehnat muhojirlarining huquqiy manfaatlarini aks ettirmagan [28; 154].

Mustaqillikning dastlabki yillarida ikki davlat o'rtasida mehnat muhojirligi sohasida o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilmagan bo'lsa-da, RFga borib ishlovchi muhojirlar soni tobora ortib borgan. 2000 – 2010-yillarda Armaniston, Ukraina va O'zbekiston fuqarolari RFdagi barcha mehnat muhojirlarining yarmini tashkil etgan [20; 26]. Ushbu davrda o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining soni muntazam ortib borgan. Xususan, 2000-yilda 6,1 ming, 2005-yilda 49 ming, 2010-yilda esa 511,5 ming O'zbekiston fuqarolari RFda ishlash ruxsatnomasini olgan. Ularning soni 2000-yilda jami mehnat muhojirlarining 3 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2010-yilda 31 foizga yetgan. Keyingi o'n yil davomida bu ko'rsatkich ikki barobarga ortib, 60 foizga yetgan (1-rasmga qarang).



**1-rasm. RFda ishlash ruxsatnomasini olgan migrantlar tarkibida o'zbekistonliklar ulushi (foizda)\***

2014-yilda ishlash ruxsatnomasini rasmiylashtirish hisobiga RF byudjetiga tushgan mablag'ning 32,5 foizi, 2017-yilda esa 60 foizi o'zbekistonlik mehnat muhojirlari tomonidan to'langan mablag'lar tashkil etgan [21; 113].

1995-yildan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (keyingi o'rinlarda – TMMA) chet ellarda ishlash istagida bo'lgan fuqarolarni tartibli ravishda ishga yuborish bilan shug'ullangan bo'lsa-da, 2008-yilgacha birorta ham fuqaro ushbu agentlik orqali RFga yuborilmagan. Mehnat muhojirligi sohasida hamkorlikning yo'lga qo'yilmasligi natijasida tartibga solinmagan, norasmiy mehnat muhojirligi hajmi yil sayin ortib borgan.

\* RF Statistika xizmati ( <https://rosstat.gov.ru/compendium/document/13283>) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.


Mavjud vaziyatni inobatga olib 2005-yilda O'zbekistonning mutasaddi tashkilotlari tomonidan mehnat muhojirligini tartibga solish bo'yicha ikki tomonlama bitim loyihasi ishlab chiqilgan [11]. Ushbu bitim O'zbekiston tomonidan 2007-yilda, RF tomonidan esa 2009-yilda ratifikatsiya qilingan [13]. Mazkur bitimning imzolanishi tez fursatlarda o'zining amaliy natijalarini ko'rsatdi. Xususan, RFdagi mehnat muhojirlari o'z faoliyatini rasmiylashtira boshladilar. Ishlash ruxsatnomasini olgan o'zbekistonliklar soni 2006-yilga 105,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilda 6,1 barobarga ko'payib, 642,7 ming kishiga yetgan [8]. Lekin bu barcha mehnat muhojirlarining qonuniy faoliyati o'rnatilganligini anglatmaydi. Masalan, birgina 2008-yilning o'zida 1,5 milliondan ortiq o'zbekistonlik RFga tashrif buyurganligini hisobga olsak [8], mehnat muhojirlarining soni 1 millionga yaqin bo'lganligini tahmin qilish mumkin.

Migratsiya masalasida ikki tomonlama bitim imzolangan bo'lsa-da, uni amalga oshirish mexanizmi yaxshi tashkil etilmadi. O'zbekistondan 2008 – 2016-yillar davomida atigi 410 kishi tartibli ravishda RFga ishga yuborilgan, xolos. Ularning 32 foizi Farg'ona vodiysi viloyatlari xissasiga to'g'ri kelib, Andijon viloyatidan 70 nafar, Namangan viloyatidan 41 nafar, Farg'ona viloyatidan esa 18 nafar ishchi yuborilgan [18]. Vaholangki, bu davrda bir millionga yaqin aholi xususiy tartibda RFga borib ishlagan.

Shuningdek, 2007-yil 4-iyulda hukumatlar o'rtasida "Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" bitim imzolangan [12] bo'lib, bu o'z vaqtida tartibga solinmagan mehnat muhojirligining salbiy oqibatlari bilan bog'liq edi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, birgina 2008-yilning 9 oyi davomida 1449 nafar O'zbekiston fuqarosi odam savdosi qurboni bo'lgan [23]. 2008-yilda odam savdosidan jabrlanganarning 41 nafari Farg'ona viloyatidan bo'lib, ularning 11 nafari RFda, 15 nafari esa Qozog'istonda mehnat qulligiga uchragan [3]. Bu raqamlar rasmiy statistikada qayd etilganlari bo'lib, aniqlanmay qolganlari hisobiga bundan ham yuqori bo'lishi mumkin.

2013-yil 15-oktyabrda O'zbekiston va RF hukumatlararo kelishuvi bo'yicha mehnat sohasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash borasida o'zbek-rus qo'shma ishchi guruhining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi [14]. Hamkorlik aloqalarini kuchaytirish maqsadida TMMA tomonidan tayyorlangan O'zbekiston-Rossiya o'rtasida mehnat migratsiyasi sohasida vakolatli idoralar kelishuvining loyihasi 2013-yil 19-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan [14]. Kelishuv loyihasi qayta ko'rib chiqilib, "Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining RF hududida tashkillashtirilgan ravishda saralab olish va ishga joylashtirish" to'g'risidagi bitim loyihasi 2015-yil Rossiya tomoniga yuborilgan [15]. Ushbu kelishuv loyihasi haqidagi xabarlar keng jamoatchilikka tarqatilgan bo'lsa-da, amaliy ahamiyat kasb etmay qolib ketgan. Migratsiya bo'yicha ekspert Natalya Vlasova RFda 8 millionga yaqin norasmiy mehnat muhojirlari borligini, mehnat muhojirlarining hujjatlarini rasmiylashtirishdagi muammolar esa ularning sonini yanada ortib borishiga sabab bo'layotganligini ta'kidlab o'tgan edi [30]. 2015-yil holatiga, RFdagi o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining soni 1,9 milliondan ortiq bo'lib, ularning deyarli yarmi norasmiy mehnat muhojirlaridan iborat bo'lgan [27]. Norasmiy mehnat muhojirlarining RFga kirish huquqi cheklab qo'yilgan bo'lib, 2016-yilda bunday taqiqqa uchraganlar soni 1 million 650 ming nafarni tashkil etgan. E'tiborlisi, ularning 1 millioni O'zbekiston fuqarosi bo'lgan [32; 53].


RFda bo'lish imkoniyatlarini oshirish maqsadida ayrim mehnat muhojirlari hatto o'z vatanidan mutloq yiroqlasha boshlagan. Ularning ayrimlari RF fuqaroligini ham qabul qilgan. Masalan, 2001 – 2011-yillar davomida 394 ming 885 nafar o'zbekistonliklar RF fuqaroligini olgan [29; 11]. 2016 – 2019-yillarda RF fuqaroligini olgan o'zbekistonliklar 17 foizga, RFda vaqtincha yashash uchun O'zbekiston fuqarolariga berilgan ruxsatnomalar soni 39 foizga, ushbu ruxsatnomaga ega O'zbekiston fuqarolarining soni 31 foizga kamaygan [9].



### 2-rasm. RF fuqaroligini olgan o'zbekistonliklar soni\*

2017-yildan boshlab O'zbekiston va RF o'rtasida mehnat muhojirligi sohasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 2017-yil 4-5-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning RFga rasmiy tashrifi davomida sohaga oid bo'lgan 2 ta hukumatlararo bitim imzolandi [1]. Ushbu bitimlarda o'zbekistonlik ishchilarni RF tashkiliy asosda yuborish, migratsiya sohasidagi davlat idoralarning vakolatxonalarini tashkil etish masalalari belgilab olindi. Ushbu tashrif davomida erishilgan kelishuvlar o'zining amaliy ahamiyatini ko'rsatib, 2017 – 2018-yillarda 1,9 ming nafar fuqaro tashkiliy asosda RFga ishlashga yuborildi.

RFga tashkiliy asosda ishga yuborilgan fuqarolarning jins tarkibi tahlil qilinganida erkaklar ulushi yuqoriligini ko'rish mumkin. Buning sababi RF mehnat bozorida erkak ishchilarga bo'lgan talabning yuqoriligidir. Shunday bo'lsa-da, so'ngi yillarda ayollar mehnat muhojirligi faollashib borayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, 2017-yilda 992 nafar fuqaro yuborilgan bo'lsa, ularning 33,2 foizini ayollardan iborat bo'lgan. Bu borada respublikadagi eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo (54 foiz), Qashqadaryo (51 foiz), Navoiy (50 foiz), Sirdaryo va Toshkent viloyatlariga (47 foiz) to'g'ri kelgan. Farg'ona vodiysi viloyatlarida esa bu ko'rsatkich respublika darajasidan pastroq bo'lib, Andijon viloyatida 29 foizni, Farg'ona viloyatida 24 foizni, Namangan viloyatida esa 21 foizni tashkil qilgan.



\* Muallif tomonidan tayyorlangan.

### 3-rasm. 2017-yilda RFga tashkiliy asosda yuborilgan mehnat muhojirlarining jins tarkibi\*

Mehnat muhojirligi sohasidagi muammolar so'ngi yillarda ham o'zini namoyon etdi. Xususan, 2018-yil 18-yanvarda sodir bo'lgan Oqto'be fojeasi shulardan biridir. Fojea oqibatida RFga ishlash uchun ketayotgan yo'lovchi avtobusidagi 52 nafar o'zbekistonlik halok bo'ldi [7]. Ma'lumotlarga ko'ra, halok bo'lganlarning aksariyati Namangan (To'raqo'rg'on tumanidan 20 nafar, Kosonsoy tumanidan 9 nafar, Uchqo'rg'on tumanidan 2 nafar) va Farg'ona (Toshloq tumanidan 14 nafar) viloyatlaridan bo'lgan [4]. Ushbu fojea ortidan Milliy tiklanish demokratik partiyasi raisi A.Qodirovning bildirgan fikri ko'plab muhojirlarning o'rinli e'tirozlariga sabab bo'ldi [2]. Fojea ortidan O'zbekiston chegarasidan tashqariga chiqayotgan fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga doir shoshilinch chora-tadbirlar to'g'risidagi hukumat qarori [6] imzolandi. Bu borada e'tiborning kuchaytirilishi natijasida kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan mudhish voqealarning oldi olindi.

O'zbekistonlik ishchilarni RFga tashkiliy asosda yuborish COVID-19 pandemiyasi davrida ham davom etgan. 2020-yilda O'zbekistonning vakolatli idoralari tomonidan 2237 nafar, RF korxonalari tomonidan esa 6889 nafar, jami 9126 nafar fuqaro tashkiliy asosda ishga yuborildi. Hamkorlik aloqalarini kengaytirish maqsadida 2021-yil TMMA RF tomoni bilan 24 marotaba turli darajada uchrashuvlar tashkil etib, hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Muzokaralar natijasida, 2021-yilning 16-martda Toshkent shahridagi "Ishga marhamat" Monomarkazida Moskva shahrining "Ko'p funksiyali migratsiya markazi" tashkil etildi [17]. Bu mehnat migrantlarining ketishdan oldin xujjatlarni rasmiylashtirishga ketadigan vaqtning tejalishiga olib keldi. Shuningdek, qurilish sohasida ishga jalb qilish bo'yicha "Pilot loyihasi"ga start berildi [17]. Ushbu loyihaning afzallik tomoni shunda-ki, ishga ketish oldidan tibbiy ko'rikdan o'tish, daktiloskopiya (barmoq izini ro'yxatdan o'tkazish) kabi jarayonlar O'zbekistonning o'zida amalga oshirilgan. Natijada, birgina 2021-yilda 100 mingdan ortiq fuqaro RFga tashkiliy asosda ishga yuborilgan.

#### 1-jadval

#### TMMA va XBA tomonidan 2008 – 2021-yillarda RFga tashkiliy asosda yuborilgan mehnat muhojirlarining soni<sup>1</sup>

Hududlar nomi	2008	2009	2017	2018	2019	2020	2021
<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>363</b>	<b>3</b>	<b>922</b>	<b>992</b>	<b>1425</b>	<b>2237</b>	<b>100260</b>
Farg'ona vodiysidan	126	3	347	378	1046	1220	40764
Andijon	68	2	171	193	505	544	11953
Namangan	40	1	90	80	213	322	14602
Farg'ona	18		86	105	328	354	14209
Foizda	34,7	100	37,6	38,1	73,4	54,5	40,6

Rasmiy ma'lumotlar tahliliga ko'ra, 2017 – 2021-yillarda RFga tashkiliy asosda yuborilgan mehnat muhojirlarining soni o'tgan davrga (2008 – 2014) nisbatan 99,7 foizga

\* TMMA ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.


<sup>1</sup> TMMA ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

o'sgan. Bu birinchi navbatda 2017 – 2021-yillarda ikki davlat o'rtasidagi mehnat muhojirligi sohasidagi kelishuvlarning samarali natijalari bilan bog'liq.

Tashkiliy asosda yuborilgan mehnat muhojirlarining katta qismi (41,3 foizi) Farg'ona vodiysi viloyatlaridan bo'lgan. Bu borada eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida eng past daraja qayd etilgan.

Ayrim holatlarda RFga tashkiliy asosda ishga yuborilgan fuqarolarning qonunga zid ravishda ish joylarini tashlab ketib, boshqa ishga yollanib ishlash holatlari ham kuzatilgan. Masalan, 2020-yil fevral-mart oylarida "Pusk" qurilish korxonasiga 62 nafar ishchi tashkiliy asosda yuborilgan bo'lib, ularning 40 nafari o'z ish joylarini noqonuniy tarzda tashlab chiqib ketgan [16]. Bunga ish beruvchi va xodim o'rtasidagi belgilangan shartnoma shartlariga amal qilmaslik holatlari o'z ta'sirini o'tkazgan.

RFdagi mehnat muhojirlarining asosiy qismi qurilishda – 51,6 foiz, qishloq xo'jaligida – 12,3 foiz, sanoatda – 9,2 foiz va savdoda – 8,5 foizi band bo'lib [24], ularning pul o'tkazmalari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu uzoq yillar davomida na tan olindi, na migrantlar uchun munosib sharoit yaratildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2012-yilda O'zbekiston gaz va boshqa energiya resurslari eksportidan 5,03 milliard AQSh dollar daromad ko'rgan bo'lsa, RFdagi mehnat muhojirlari tomonidan yuborilgan rasmiy pul o'tkazmalari 5,7 milliard AQSh dollardan ziyod bo'lgan [10]. Bu respublikada bir paytlar majburiy mehnat vositasida terib olinadigan paxta eksportidan keladigan daromaddan 4,5 barobarga ko'p edi. Mehnat muhojirlari tomonidan yuborilgan rasmiy pul o'tkazmalari 2013-yilda eng yuqori cho'qqiga chiqqan.



**4-rasm. 2010 – 2021-yillarda O'zbekistonga RFdan yuborilgan pul o'tkazmalari (mlrd. AQSh dollari)\***

Fikrimizcha, buning ikkita sababi bor. Birinchidan, u davrda RF rublining qadri ancha baland bo'lgan. Ikkinchidan, RF tomonidan 2014-yilda Qrimning anneksiya qilinishi ortidan RFga qarshi sanksiyalarning joriy etilishi uning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va bu o'z navbatida mehnat migrantlari daromadlarining pasayishiga olib keldi. Keyingi yillarda pul o'tkazmalarining hajmi bosqichma-bosqich ortib bordi va bu holat **COVID-19** pandemiyasiga qadar davom etdi. Karantin qoidalarining yumshatilishi ortidan pul o'tkazmalari hajmi yana orta boshlagan.

\* Jahon Banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



**Xulosa.** XX asrning boshlaridan RFga borib ishlovchi mehnat muhojirlari soni tobora ortib borgan. Bu holat yangi asrning dastlabki o'n yilliklarida RFda ishlash ruxsatnomasini olgan o'zbekistonliklar sonining ortib borganligi bilan izohlanadi.

Ikki davlat o'rtasida sohaga oid hamkorlikning yo'lga qo'yilmasligi natijasida 1995-yilda tashkil etilgan TMMMA 2008-yilga qadar bironta mehnat muhojirini tashkiliy asosda RFga yubormagan. Buning natijasida tartibga solinmagan, norasmiy mehnat muhojirligi hajmi ortgan. Xatto ayrim mehnat muhojirlari RF fuqaroligini olganlik holatlari ham qayd etilgan.

2008 – 2016-yillarda atigi 410 nafar mehnat muhojiri tashkiliy asosda RFga yuborilgan bo'lsa, 2017 – 2021-yillarda 120 mingdan ortiq kishi tashkiliy asosda RFga vaqtincha ishlash uchun yuborilgan. Bu jarayonning tezlashishiga O'zbekistonda "Ko'p funksiyali migratsiya markazi"ning tashkil etilishi va mehnat muhojirlarini tashkiliy asosda yuborish uchun mo'ljallangan "Pilot loyihasi"ning ishga tushirilishi muhim ahamiyat kasb etgan.

RFdagi mehnat muhojirlarining asosiy qismi qurilish, qishloq xo'jaligi sohasida, ayrimlari esa savdo va sanoat sohalarida mehnat qiladilar. Shuningdek, ular tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. O'zbekiston gaz va boshqa energiya resurslari eksportidan 5 milliard AQSh dollar daromad ko'rgan bo'lsa, RFdagi mehnat muhojirlarining rasmiy pul o'tkazmalari 5,7 milliard AQSh dollarini tashkil etgan (2012). Ushbu pul tushumlari respublikada bir paytlar majburiy mehnat asosida terib olinadigan paxta eksporti daromadidan 4,5 barobarga ko'p bo'lganligini ta'kidlab o'tish lozim.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. "O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi hukumatlari o'rtasidagi "Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkiliy asosda qabul qilish va jalb etish to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati o'rtasida migratsiya sohasida vakolatli organlarning vakolatxonalarini o'zaro ta'sis etish to'g'risida"gi Bitim. 2017-yil 5-aprel. Elektron manbaa: <https://lex.uz/docs/3475789>, <https://lex.uz/docs/3262692> (Murojaat vaqti: 2023-yil 25-sentyabr).
2. Alisher Qodirov: «O'zini hurmat qilgan odam 50 dollarni iqtisod qilish uchun yonib ketishi aniq bo'lib turgan avtobusga o'tirib, 50 daraja sovuqda yo'lga chiqmaydi» Elektron manbaa: <https://kun.uz/news/2019/12/14/alisher-qodirov-ozini-hurmat-qilgan-odam-50-dollarini-iqtisod-qilish-uchun> (Murojaat vaqti: 2023-yil 23-iyun).
3. Farg'ona viloyati ichki ishlar boshqarmasi tomonidan berilgan ma'lumot, 2022-yil.
4. Fojiali halok bo'lganlarning to'ldirilgan ro'yxati e'lon qilindi. Elektron manbaa: <https://archive.qalampir.uz/news/fojiali-xalok-bolganlarning-toldirilgan-royxati-elon-qilindi-15905> (Murojaat vaqti: 2023-yil 13-may).
5. MDH davlatlari o'rtasida 15.04.1994 yildagi "Mehnat migratsiyasi va mehnatkash-migrantlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi Bitim. Elektron manbaa: <https://lex.uz/docs/2738231> (Murojaat vaqti: 2023-yil 15-iyun).
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.01.2018 yildagi "Yo'lovchi avtotransportida favqulodda vaziyatlar profilaktikasi va ularning oldini olish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqariga chiqadigan fuqarolar xavfsizligini



- ta'minlashga doir shoshilinch chora-tadbirlar to'g'risida"gi 42-son qarori. Elektron manbaa: <https://lex.uz/uz/docs/3519160?ONDATE=12.03.2021%2000> (Murojaat vaqti: 2022-yil 15-mart).
7. Prezident halok bo'lganlarning oilalariga kompensatsiya ajratish to'g'risida topshiriq berdi. Elektron manbaa: <https://www.president.uz/uz/1442> (Murojaat vaqti: 2023-yil 23-iyun).
  8. Rossiya Federatsiyasi statistika xizmatining rasmiy sayti ma'lumotlari. Elektron manbaa: <https://rosstat.gov.ru/compendium/document/13283> (Murojaat vaqti: 2023-yil 15-yanvar)
  9. Rossiyadagi migrantlar ko'rsatkichida o'zbekistonliklar ulushi. Elektron manba: <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/6883/> (Murojaat vaqti: 2022-yil 12-aprel).
  10. Sadykov M. Uzbekistan Sees Spike in Labor Migrant Remittances. Elektron manba: <https://eurasianet.org/uzbekistan-sees-spike-in-labor-migrant-remittances> (Murojaat vaqti: 2023-yil 10-mart).
  11. TMMA JA. Agentlikning 2005-yil hisobot hujjatlari.
  12. TMMA JA. Agentlikning 2007-yil hisobot hujjatlari.
  13. TMMA JA. Agentlikning 2009-yil hisobot hujjatlari.
  14. TMMA JA. Agentlikning 2013-yil hisobot hujjatlari.
  15. TMMA JA. Agentlikning 2015-2016-yillar hisobot hujjatlari.
  16. TMMA JA. Agentlikning 2020-yil 9 oylik hisobot hujjatlari.
  17. TMMA JA. Agentlikning 2021-yil hisobot hujjatlari.
  18. TMMAning Yig'ma-tahlil boshqarmasitomonidan berilgan ma'lumot, 2022-yil.
  19. TMMAning Yig'ma-tahlil boshqarmasitomonidan berilgan ma'lumot, 2023-yil.
  20. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2012). International Migration Report, 2011. – P. 26.
  21. Икромов Д.З. Международная миграция из стран Центральной Азии в Россию: оценка влияния на социально-экономическое развитие. Монография. – Душанбе: ЭР-Граф. – 2019. – С. 113.
  22. Ишанходжаев С. Ўзбекистоннинг меҳнат миграциясини тартибга солишга оид икки ҳамда кўп томонлама ҳамкорлиги // Юрист ахборотномаси. – 2018. – № 3. – Б. 66.
  23. Қодиров Р. Одам савдоси – умумжаҳон миқёсидаги муаммо / Халқ сўзи. 17-октябр, 2008-йил.
  24. Мармونتова Т. Трудовая миграция из Кыргызстана и Узбекистана: анализ влияния на ситуацию в рамках ЕАЭС. Электрон манба: <https://nicrus.ru/analytics/trudovaya-migraciya-iz-kyrgyzstana-i-uzbekistana/> (Murojaat vaqti: 2022-йил 12-апрел).
  25. О сотрудничестве государств-участников Содружества Независимых Государств в борьбе с незаконной миграцией, 1998 г. Электрон манбаа: [https://base.spinform.ru/show\\_doc.fwx?rgn=4726](https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=4726) (Murojaat vaqti: 2023-йил 15-июн).
  26. Общий страновой анализ ООН: Узбекистан. Страновая Команда ООН Узбекистан. 2019-2020. – С. 24.
  27. Официальный визит И.Каримова в Россию: новый этап стратегического партнерства. Электрон манба: <https://cis.minsk.by/news/6267/oficialnyj-vizit-ikarimova-v-rossiu-novyj-etap-strategiceskogo-partnerstva> (Murojaat vaqti: 2022-йил 12-апрел).

28. Расулова Д.В. Бозор муносабатлари тизимида ишчи кучи миграциясининг назарий-услугий асосларини такомиллаштириш: и.ф.д. дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 154-155.
29. Рязанцев С. Роль трудовой миграции в развитии экономики Российской Федерации. Экономической и социальной комиссии для Азии и Тихого океана. 2016. – С. 11.
30. Трудовая миграция на постсоветском пространстве: плюсы и минусы. Взгляд изнутри. Электрон манбаа: <https://carnegieendowment.org/2013/06/26/ru-event-4172> (Мурожаат вақти: 2023-йил 10-апрел).
31. Узбекистан Гендерная оценка по стране. Азиатский банк развития, 2014. – С. 19.
32. Уязвимость мигрантов и потребности интеграции в Центральной Азии: Основные причины и социальноэкономические последствия возвратной миграции. Региональная полевая оценка в Центральной Азии 2016. Астана, 2016. – С. 53.
33. Islombek, A. (2023). Analysis of Money Transfers of Labor Migrants (In the Case of Central Asian Countries). Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(6), 151-157.
34. Abdukhamidov, I. (2024). Organizational and Legal Basis of External Labor Migration in Uzbekistan (1991-2016 Years). Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(2), 10-16.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).